



ICHKI ISHLAR ORGANLARI TEZKOR BO‘LINMALARI TOMONIDAN KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Narzullaev Nurimbek Nurillaevich,
Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: Narzullayev@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari tezkor bo‘linmalarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi rolini ilmiy, huquqiy va siyosiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Ilmiy jihatdan, tadqiqot korrupsiyaga qarshi kurashning tizimli muammolarini aniqlab, O‘zbekiston qonunchiligini, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini va ISO 37001:2016 standartini asos qilib, Gonkong, Singapur, Daniya va Gruziya tajribalariga asoslangan amaliy yechimlarni taklif etadi. Huquqiy nuqtayi nazardan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun va qonunosti hujjatlar asosida qonunchilikning samaradorligi va kamchiliklari tahlil qilinib, ichki nazorat tizimlari, deklaratsiyalash va xabar beruvchilarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar beriladi. Siyosiy jihatdan, maqola korrupsiyaga qarshi kurashni O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish strategiyasi doirasida ko‘rib, Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari, xususan, Jamoatchilik palatasi tashkil etish va fuqarolar ishtirokini kengaytirish orqali shaffoflik va ishonchni oshirishga qaratilgan islohotlarni ta’kidlaydi. Tadqiqot xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali davlat boshqaruvida shaffoflikni ta’minlash, fuqarolar ishonchini mustahkamlash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga hissa qo‘shishni maqsad qiladi.

Kalit so‘zlar: Korrupsiyaga qarshi kurash, Ichki ishlar organlari, tezkor bo‘linmalar, O‘zbekiston qonunchiligi, shaffoflik, ichki nazorat tizimlari, jamoatchilik ishtiroki, xalqaro tajriba, BMT, Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, ISO 37001:2016, davlat boshqaruvi, Gonkong, Singapur, Daniya, Gruziya.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

ISSUES AND SOLUTIONS IN COMBATING CORRUPTION BY THE OPERATIONAL UNITS OF THE MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS

Annotation:

This article analyzes the role of the operational units of the Republic of Uzbekistan's Ministry of Internal Affairs in combating corruption from scientific, legal, and political perspectives. From a scientific standpoint, the study identifies systemic issues in anti-corruption efforts, proposing practical solutions based on Uzbekistan's legislation, the United Nations Convention Against Corruption, and the ISO 37001:2016 standard, drawing on the experiences of Hong Kong, Singapore, Denmark, and Georgia. From a legal perspective, the article evaluates the effectiveness and shortcomings of the Law on Combating Corruption and related sub-legislative acts, offering recommendations for improving internal control systems, asset declaration mechanisms, and whistleblower protection. Politically, the article examines anti-corruption efforts within the framework of Uzbekistan's development strategy until 2030, highlighting President Sh.M. Mirziyoyev's initiatives, particularly the establishment of the Public Chamber and the expansion of public participation to enhance transparency and trust. The study aims to contribute to ensuring transparency in public administration, strengthening public trust, and attracting foreign investment by adapting international experiences to local conditions.

Keywords: Anti-corruption, Ministry of Internal Affairs, operational units, Uzbekistan legislation, transparency, internal control systems, public participation, international experience, UN Convention Against Corruption, ISO 37001:2016, public administration, Hong Kong, Singapore, Denmark, Georgia.



ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ В БОРЬБЕ С КОРРУПЦИЕЙ, ОСУЩЕСТВЛЯЕМОЙ ОПЕРАТИВНЫМИ ПОДРАЗДЕЛЕНИЯМИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация:

Данная статья посвящена анализу роли оперативных подразделений Министерства внутренних дел Республики Узбекистан в борьбе с коррупцией с научной, правовой и политической точек зрения. С научной точки зрения исследование выявляет системные проблемы в противодействии коррупции и предлагает практические решения, основанные на законодательстве Узбекистана, Конвенции ООН против коррупции и стандарте ISO 37001:2016, с учетом опыта Гонконга, Сингапура, Дании и Грузии. С правовой точки зрения анализируется эффективность и недостатки Закона «О противодействии коррупции» и связанных подзаконных актов, предлагаются рекомендации по совершенствованию систем внутреннего контроля, механизмов декларирования активов и защиты лиц, сообщающих о фактах коррупции. С политической точки зрения статья рассматривает борьбу с коррупцией в рамках стратегии развития Узбекистана до 2030 года, подчеркивая инициативы Президента Ш.М. Мирзиёева, в частности, создание Общественной палаты и расширение участия граждан для повышения прозрачности и доверия. Исследование направлено на содействие обеспечению прозрачности в государственном управлении, укреплению доверия граждан и привлечению иностранных инвестиций путем адаптации международного опыта к местным условиям.

Ключевые слова: Противодействие коррупции, Министерство внутренних дел, оперативные подразделения, законодательство Узбекистана, прозрачность, системы внутреннего контроля, участие общественности, международный опыт, Конвенция ООН против коррупции, ISO 37001:2016, государственное управление, Гонконг, Сингапур, Дания, Грузия.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

Kirish

Korrupsiya zamonaviy jamiyatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lib xizmat qiluvchi global muammo sifatida tan olinadi. Transparency International tashkilotining 2024-yilgi Korrupsiya idrok etish indeksi (CPI) ma'lumotlariga ko'ra, ko'plab davlatlarda, shu jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda korrupsiya davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytirib, fuqarolar ishonchini yo'qotishga olib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, bu sohada muhim huquqiy va institutsional hamda konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish muhim ahamiyatga ega sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyot, huquqni muhofaza qilish va davlat faoliyatining boshqa sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning dastlabki bosqichida yo'l qo'yilgan jiddiy kamchiliklar, noto'g'ri hisob-kitoblar, qonunchilik bazasining mukammal emasligi, samarali boshqaruv siyosatining yo'qligi korrupsiyaning kuchayishiga sabab bo'lgan asosiy omillar bo'ldi. Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Prezidenti etib saylangan vaqtdan boshlab, korrupsiyaga qarshi kurashish va bu salbiy illatga qarshi kurashishni o'zining dasturiy vazifasini deb e'lon qildi. Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasida jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlik

o'rnatish maqsadida Jamoatchilik palatasi tashkil etish taklifi bildirildi.¹ Mamlakatimizda korrupsiya bilan bog'liq muammolarga chek qo'yish va ularni jilovlash maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-34-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini

¹ Shavkat Mirziyoyev korrupsiyaga qarshi kurashning yangi tuzilmalarini tashkil qilish bo'yicha yig'ilishida so'zlagan nutqi - 11.02.2020.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-6013-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6257-son farmonlari mamlakatimiz ushbu "yov" ga qarshi kurashishning yangi bosqichini ishlab chiqdi. Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, tergov qilish va oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu bo'linmalar jinoyatlarning oldini olish, huquqbuzarliklarni fosh qilish va javobgar shaxslarni jazolashda davlat siyosatining amaliy ijrochilari sifatida, ayrim holatlar bo'ladiki, jinoyatning bevosita subyekti bo'lib xizmat qiladi. Biroq, Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari faoliyatida bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular samaradorlikni pasaytiradi va korrupsiyaga qarshi kurashning umumiy natijadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash shaffoflik, mustaqil institutlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga asoslanadi. Masalan, Gonkongning Korrupsiyaga qarshi mustaqil komissiyasi (ICAC) va Singapurda Korrupsiyani tergov qilish byurosi (CPIB) kabi tashkilotlar o'z faoliyatida ochiqlik, jamoatchilik bilan hamkorlik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali yuqori natijalarga erishgan.² Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yil 31-oktyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi" (O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan 2008-yil 28-avgust kuni ratifikatsiya qilingan) davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulk deklaratsiyasini joriy etish, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va komplayens-nazorat tizimlarini rivojlantirishni tavsiya qiladi.³ O'zbekiston sharoitida ushbu xalqaro standartlarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish va Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalarining faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

² <https://www.kun.uz/news/2021/12/07/singapur-korrupsiyani-qanday-yengdi>

³ Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yil 31-oktyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi" - <https://lex.uz/docs/-1461329> (O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan 2008-yil 28-avgust kuni ratifikatsiya qilingan - <https://lex.uz/docs/-1369505>)



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

Ushbu tadqiqotning maqsadi Ichki ishlar organlari tezkor bo‘linmalarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi faoliyatini har tomonlama tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va O‘zbekiston qonunchiligiga, shuningdek, xalqaro standartlarga mos keladigan ilmiy asoslangan yechimlarni taklif etishdan va ularni bevosita tahlil qilishdan iborat. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, ISO 37001:2016 standarti va xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalariga asoslanadi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati Ichki ishlar organlari tezkor bo‘linmalarining samaradorligini oshirish, davlat boshqaruvida shaffoflikni ta‘minlash va korrupsiyaga qarshi kurashda tizimli yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqishda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa davlat organlari, xususan, Ichki ishlar organlari faoliyatini optimallashtirish va fuqarolar ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Maqola mavzusi doirasida ilmiy o‘rganishlar amalga oshiriladiki, quyidagi savollarga javob topishga harakat qilindi. Tadqiqot quyidagi savollarga javob berishga qaratilgan:

1. IIO tezkor bo‘linmalarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi asosiy muammolari qanday?
2. O‘zbekiston qonunchiligi va normativ-huquqiy hujjatlari ushbu muammolarni bartaraf etishda qanchalik samarali?
3. Xalqaro tajriba va standartlarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali qanday yechimlar taklif qilinishi mumkin?

Maqola O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining mavjud holatini tahlil qilish, Ichki ishlar organlari tezkor bo‘linmalarining faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun xalqaro tajribaga asoslangan takliflar ishlab chiqish orqali davlat boshqaruvida shaffoflik va ochiqlikni ta‘minlashga hissa qo‘shishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Ushbu sohada asosiy normativ-huquqiy hujjat sifatida 2017-yilda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun hisoblanadi. Ushbu qonun korrupsiyaga oid



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

huquqbuzarliklarning ta'rifini, ularning oldini olish choralari va javobgarlik mexanizmlarini belgilaydi. Qonunning 3-moddasida korrupsiya “davlat xizmatchisi yoki boshqa shaxs tomonidan o‘z mansab vakolatlaridan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanish”⁴ sifatida ta’riflanadi, bu esa xalqaro standartlar, xususan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003) bilan mos keladi. Biroq, qonunning amaliy qo‘llanilishi va ichki ishlar organlari tezkor bo‘linmalari faoliyatida uning samaradorligi bir qator muammolar bilan cheklanmoqda. Qonun korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy prinsiplarini, jumladan, qonuniylik, shaffoflik, ochiqlik va fuqarolar ishtirokini ta’minlashni belgilaydi. Qonunning 7-moddasi korrupsiyaga qarshi kurashda davlat organlari, shu jumladan, Ichki ishlar organlarining mas’uliyatini aniqlaydi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi PF-6013-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni va 2021-yildagi PF-6257-son “Davlat boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimlarini joriy etish to‘g‘risida”gi farmoni huquqiy bazani mustahkamladi. Ushbu farmonlar davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulk deklaratsiyasini joriy etish, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

IIO tezkor bo‘linmalari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjatlar orasida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi ham muhim o‘rin tutadi. JKning ayrim moddalari korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlaydi va jazo choralari belgilaydi. Shu bilan birga, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun (O‘RQ-407, 2016) Ichki ishlar organlarining huquqni muhofaza qilishdagi umumiy vakolatlarini tartibga soladi, ammo korrupsiyaga qarshi maxsus choralar bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar berilmaydi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi PQ-2752-son qarori bilan “2017-2018-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son Farmoni bilan “2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi

⁴ Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun (O‘RQ-419). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. <https://lex.uz/docs/3476647>



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

kurashish” Davlat dasturlari tasdiqlangan edi. Qonun va qonunosti hujjatlari asosida barcha davlat tashkilotlari, xususiy sohalar va fuqarolik jamiyati tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyalar tashkil etildi. Shuningdek, korrupsiya holatlari bo'yicha xabardor qilish mexanizmi va aniqlangan holatlar bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning huquqiy va amaliy asoslari yaratildi.

Korrupsiya fenomeni keng qamrovli tushuncha bo'lganligi sababli bugungi kunda ushbu muammoni o'rganishda turli xil yondashuvlar mavjud: sotsiologik yondashuv, yuridik (kriminologik) yondashuv, iqtisodiy, siyosiy yondashuv va axloqiy madaniy yondashuv. Shulardan biri sotsiologik yondashuv bo'lib, bunda korrupsiyani o'rganishga bo'lgan urinishlar korrupsiya xodisasini tushuntirishda turli xil metodlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Manbalarda keltirilishicha, sotsiologik nuqtai nazardan korrupsiya uning sub'ektlari, korrupsiya sohalar, korrupsiyadan ko'zlangan maqsad va uni amalga oshirish usullari, korrupsiya shakllari va uning ob'ektlari kabi o'zaro aloqadorlikda bo'lgan elementlarni qamrab oluvchi interaktiv munosabatlarda shakllangan, ishtirokchilarning ratsional tanlovi asosida amalga oshadigan, moddiy va ramziy resurslarni almashinishni ifodalaydigan disfunktsional hodisadir (E.Giddenson, Yu. Xabermas, Dj. Mid, G.Blumer, N. Luman, T. Parsons, R. Merton, N. Smelzer, Dj. Xomans, P. Blau, A. Daune, G. Bekker, Dj. Koulman, M. Olson).⁵ Bunda korrupsiyani ijtimoiy hayotga salbiy ta'siri va ijtimoiy munosabatlarda o'zaro ishonchsizlik hamda ta'magirlikni yuzaga keltirishini oldini olish maqsadida aholiga poraxo'rlikni jamiyat taraqqiyotini orqaga suruvchi, odamlar o'rtasida ijobiy xarakterga ega axloqiy munosabatlar o'rnatilishiga to'sqinlik qiluvchi illat ekanligini singdirish muhim ahamiyatga ega.

Korrupsiya hodisasini jamiyat hayotidan ildizi bilan yo'qotib yuborish imkonsizdir, ushbu illatga qarshi faqatgina profilaktik chora-tadbirlar qo'llanilishi mumkin. G.Nurmuhammedova fikriga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashda kurashning maqsadini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Korrupsiyaga qarshi kurashning maqsadini aniqlashda umumiy (bosh maqsad) va aniq vaziyatga

⁵ J.A. Aslonov – “Korrupsiya-fenomenini-o'rganishdagi-ilmiy-nazariy-yondashuvlar-va-o'zbekiston-respublikasida-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-siyosati” – ilmiy maqola



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

asoslangan (muayayyan muddat ichida) maqsadga ajratish mumkin.⁶ Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida aniq vaziyatga asoslangan korrupsiyaga qarshi kurash chora-tadbirlari O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida to‘laonli o‘z aksini topdi. Yuqoridagi farmonga ko‘ra harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Harakatlar strategiyasida korrupsiyani oldini olish bilan bog‘liq chora tadbirlarga alohida e‘tibor berilgan bo‘lib, korrupsiyaga qarshi kurash ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Harakatlar strategiyasida belgilab olingan korrupsiyaga qarshi kurash bilan bog‘liq vazifalarni va boshqa ustuvor maqsadlarni amalga oshirishni nazorat qiluvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligidagi Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Milliy komissiya tuzildi.⁷

Korrupsiyani yo‘q qilishga qaratilgan muhim qadamlardan yana biri bu O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan xalqaro standartlarga muvofiq 2017-yil 3-yanvar kuni “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning imzolanishi bo‘ldi. Qonunda “korrupsiya”, “korrupsion huquqbuzarlik”, “manfaatlar to‘qnashuvi” kabi tushunchalarga izoh berilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

- aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlikni shakllantirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyadan ogohlantirish bo‘yicha choralarni amalga oshirish;
- korrupsion huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularning oqibatlari, sabablari va keltirib chiqargan sharoitlarni bartaraf etish hamda korrupsion

⁶ Nurmuhamedova G.B. Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar profilaktikasi mexanizmlarini takomillashtirish: usullari va yo‘nalishlari // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald. № 1 (2021), B. 189-201.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni - <https://lex.uz/mact/-3107036>



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

huquqbuzarliklar sodir etilgani uchun muqarrar jazolash tamoyilini tadbqiq etish kabilar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan.⁸

Bundan tashqari korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha “Respublika idoralararo komissiyasi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi. Komissiyaga O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori raislik qiladi va komisiyaning ishchi organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi faoliyat olib boradi. Uning tarkibi davlat organlari rahbarlari va ekspertlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ilmiy doiradagi 43 nafar a‘zodan iborat. Komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlar barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar tomonidan ijro etilishi majburiydir. Komissiya huzurida korrupsiyaga qarshi kurash choralari va bu boradagi tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarni amalga oshirish holatini ko‘rib chiqish va tahlil qilish bo‘yicha Ekspertlar guruhi tashkil etildi.⁹

Mamlakatimiz huquq tizimida ushbu mavzu doirasida ilmiy adabiyotlar cheklangan bo‘lsa-da, ba‘zi tadqiqotlar muhim jihatlarni yoritadi. Xususan, Xolmurodov va Saidov (2020) o‘zlarining “O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash: muammolar va yechimlar” maqolasida resurslar yetishmasligi va malaka muammolarini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, ular O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni samaradorligini tahlil qilib, qonunchilikdagi noaniqliklarni ko‘rsatadi.¹⁰

Mazkur mavzu doirasida xalqaro adabiyotlar ham izchil o‘rganib chiqildi. Masalan, Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ilmiy adabiyotlar korrupsiyaning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy oqibatlarini tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi. Rose-Ackerman (1999) o‘zining “*Corruption and Government*” asarida korrupsiyani davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiruvchi tizimli muammo sifatida ta’riflaydi va uni bartaraf etish uchun shaffoflik, mustaqil institutlar va jamoatchilik ishtirokini

⁸ Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun (O‘RQ-419). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. <https://lex.uz/docs/3476647>

⁹ Korrupsiyaga qarshi kurash tarmog‘i Istanbul Harakatlar Rejasi (IHR) doirasida Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarining 2016-2019 yillarda korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi islohotlari Monitoringi. www.oecd.org/corruption/acn

¹⁰ Xolmurodov, A., & Saidov, M. (2020). O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash: muammolar va yechimlar. *Iqtisodiyot va huquq jurnali*, 12(3), 45–56.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi.¹¹ Transparency International (2024) hisobotlarida korrupsiya davlat organlariga ishonchni yo'qotishga olib kelishi va iqtisodiy rivojlanishga to'siq bo'lishi ko'rsatiladi.¹² Klitgaard (1988) o'zining "*Controlling Corruption*" asarida korrupsiyani "monopoliya + ixtiyoriy vakolatlar - javobgarlik" formulasi orqali tahlil qiladi, bu esa Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari faoliyatida ichki nazorat tizimlarining muhimligini ko'rsatadi.¹³

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining "anticorruption.uz" elektron sayti, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning boshqa saytlarini kuzatish davomida ma'lum bo'ldiki, mamlakatimizda korrupsion holatlar avj olib bormoqda. Jumladan, 2020-yil davomida sudlar tomonidan 2270 nafar shaxsga nisbatan 1502 ta jinoyat ishlari ko'rib chiqildi. Shundan 2203 nafar shaxsga nisbatan 1457 ta jinoyat ishi bo'yicha hukm chiqarilgan.¹⁴ 2021-yil davomida 6294 nafar shaxs tomonidan 7953 ta korrupsion holatlarga yo'l qo'yilgan. Shundan, davlat organlari va tashkilotlari zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishga oid 3 050 nafar shaxs tomonidan 4 186 ta korrupsion holat bilan bog'liq jinoyatlar hisobga olingan. Shuningdek, Aksilkorrupsiya agentligiga 2021 yilda kelib tushgan 4 901 ta murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qonunbuzilish holatlari yuzasidan 53 ta taqdimnoma, 9 ta ogohlantirish hamda 58 ta so'rovnomalar kiritilgan.¹⁵ 2022-yil davomida 7414 shaxsga nisbatan 4607 ta jinoyat ishlari qo'zg'atilgan.¹⁶ 2023-yilning 12 oyi davomida 6535 nafar shaxsga nisbatan 4128 ta jinoyta ishlari doirasida ishlar amalga oshirilgan. Shu yilning o'zida korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida, davlat manfaatlariga jami 1,4 trln (2022 yilda 2,04 trln) so'm miqdorida zarar yetkazilganligi aniqlandi. Ushbu zararining 745 mlrd (1,1 trln) so'mi yoki 51 (54) foizi qoplangan. Davlat manfaatlariga yetkazilgan zararining

¹¹ Rose-Ackerman, S. (1999). *Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform*. Cambridge: Cambridge University Press.

¹² Transparency International. (2024). *Corruption Perceptions Index 2024*. Berlin: Transparency International. Retrieved from <https://www.transparency.org/en/cpi/2024>

¹³ Klitgaard, R. (1988). *Controlling Corruption*. Berkeley: University of California Press.

¹⁴ <https://anticorruption.uz/uzc/item/2021/04/20/2020-yilda-sodir-etilgan-korrupsiyaviy-jinoyatlar-statistikasi>

¹⁵ <https://kun.uz/news/2022/01/26/2021-yilda-budjet-tashkilotlarida-ishlovchi-3050-kishi-korrupsiyaga-qol-urdi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2022%2F01%2F26%2F2021-yilda-budjet-tashkilotlarida-ishlovchi-3050-kishi-korrupsiyaga-qol-urdi#>

¹⁶ <https://old.anticorruption.uz/uz/item/2023/05/19/2022-yil-va-joriy-yilning-otgan-davrida-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-hamda-uning-oldini-olish-boyicha-oliy-talim-sohasida-amalga-oshirilgan-ishlar-yuzasidan>



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

yuqori ulushi Andijon (243 mlrd so‘m), Namangan (194 mlrd so‘m), Qashqadaryo (143 mlrd so‘m) va Toshkent viloyatlariga (132 mlrd so‘m) to‘g‘ri kelmoqda. Korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida davlat manfaatlariga yetkazilgan zarar 2022 yilga nisbatan 608 mlrd so‘mga yoki 29 foizga kamaygan. 2022-2023 yillarda pora predmeti bo‘lgan 7,1 mlrd so‘m, 345 ming AQSH dollari va 34, 5 ming Rossiya rubli (shundan 2023 yilda 3,7 mlrd so‘m, 87, 3 ming AQSH dollari va 34, 5 ming Rossiya rubli) miqdoridagi pul mablag‘lari davlat foydasiga musodara qilinishi ta‘minlangan.¹⁷ 2024-yil mobaynida jami 4 176 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralarga, viloyat maxalliy hokimliklarga 55 ta so‘rovnoma yuborilgan, qonunbuzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan 41 ta taqdimnoma kiritilgan, 7 nafar shaxs intizomiy javobgarlikka tortilgan, shundan 1 nafari bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan, 19 ta qabul qilingan qarorlar bekor qilingan, 6 ta jinoyat ishi, 10 ta ma‘muriy ish qo‘zg‘atilgan va mavjud xato-kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘rilgan.¹⁸ 2025-yil bo‘yicha yakuniy ma‘lumotlar hali taqdim etilmagan. Shuni ham alohida ta‘kidlab o‘tish zarurki, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-son qarori bilan korrupsiyaga oid jinoyatlar tasnifi aniq belgilanganidan so‘ng statistikada 2020-yildagi jinoyatlar bilan 2021-2022-yildagi jinoyatlarning keskin oshishi kuzatilgan.

IIO Tezkor-qidiruv departamentining Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalari 2023-yilda 2 800 dan ortiq korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarni aniqlagan. Bu jinoyatlarning aksariyati hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi sodir etilgan. Eng yuqori ko‘rsatkichlar Andijon viloyatida qayd etilgan bo‘lib, bu hudud korrupsiya oqibatida yetkazilgan zarar hajmi bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallaydi.

IIO tezkor bo‘linmalari tomonidan 2023 yilda korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlashda muhim natijalar qayd etilgan bo‘lsa-da, tahlil ularning faoliyatida bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Masalan, Bosh prokuratura

¹⁷ <https://aca.uz/storage/lt9lqAa1tum639l22ZUilmhXXKWj4s-metabWlsbGl5IG1hcnV6YV9jb2lwcmVzc2VkLnBkZg==-.pdf>

¹⁸ <https://anticorruption.uz/oz/article/2024-yil-i-yarim-yillikda-davlat-organlari-va-tashkilotlarida-budjet-mablaglaridan-maqsadli-foydalanish-va-korrupsiyani-oldini-olish-borasida-amalga-oshirilgan-ishlar>



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bilan hamkorlikda Ichki ishlar organlari tomonidan 3 996 ta korrupsiyaga oid huquqbuzarlik holati aniqlangan, shundan 3 942 tasi jinoyat ishi sifatida qo'zg'atilgan. Biroq, ushbu holatlarning faqat 35% i sudgacha yetib borgan, bu esa tergov jarayonidagi samarasizlikni ko'rsatadi.

2024 yilda Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari tomonidan aniqlangan jinoyatlar soni haqida aniq ma'lumotlar cheklangan bo'lsa-da, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilning birinchi yarim yilligida davlat xaridlari sohasida 1 219 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan va 393 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Ushbu ko'rsatkichlar Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalarining davlat xaridlari sohasidagi faoliyatga e'tibor qaratayotganini ko'rsatadi, ammo huquqni qo'llashda tizimli yondashuvning yetishmasligi seziladi. Transparency International tashkilotining 2024 yilgi Korrupsiya idrok etish indeksi (CPI) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 180 mamlakat orasida 0,36 ball bilan 121-o'rinni egallagan. Bu 2019 yildagi 0,38 ball va 95-o'ringa nisbatan pasayishni ko'rsatadi, ammo 2020 yildagi 0,40 ball va 89-o'ringa nisbatan biroz yaxshilanish sifatida talqin qilinishi mumkin.¹⁹ Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashda muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari faoliyatining samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashda Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari muhim rol o'ynasa-da, faoliyat samaradorligini oshirish uchun tizimli islohotlar zarur. Xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish va shaffof ma'lumotlar bazasini yaratish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish mumkin.

Xalqaro tajriba nuqtayi nazaridan, Gonkongning Korrupsiyaga qarshi mustaqil komissiyasi (ICAC) va Singapurda Korrupsiyani tergov qilish byurosi (CPIB) kabi tashkilotlarning statistik ko'rsatkichlari O'zbekiston uchun muhim darslar beradi. Masalan, ICAC 2023-yilda 2 500 dan ortiq korrupsiya holatini tergov qilib, 85% dan

¹⁹ Transparency International. (2024). *Corruption Perceptions Index 2024*. Berlin: Transparency International. Retrieved from <https://www.transparency.org/en/cpi/2024>

¹⁹ <https://daqn.uz/2022/05/07/gonkong-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-bo%CA%BByicha-mustaqil-komissiyasi-vakillari-bilan-o%CA%BBzaro-istiqbolli-hamkorlik-masalalari-muhokama-qilindi/>



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

ortiq holatlarda sudgacha yetib borgan.²⁰ Singapurda esa CPIB tomonidan aniqlangan jinoyatlarning 90% sudda isbotlangan. Bu ko'rsatkichlar Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalarida tergov jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar va mustaqil nazorat mexanizmlaridan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba O'zbekiston qonunchiligidagi bo'shliqlarni bartaraf etishda muhim yo'l-yo'riq bo'la oladi. Masalan, Gonkongning Korrupsiyaga qarshi mustaqil komissiyasi (ICAC) korrupsiyaga qarshi kurashda uch yo'nalishli strategiyani qo'llaydi: huquqbuzarliklarni aniqlash va jazolash, oldini olish va jamoatchilikni xabardor qilish. ICAC faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik aniq jarayonlar va mustaqil nazorat mexanizmlarini belgilaydi, bu esa Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari uchun namuna bo'lishi mumkin. Singapurda Korrupsiyani tergov qilish byurosi (CPIB) davlat xizmatchilarining daromad deklaratsiyalarini avtomatlashtirilgan tizim orqali tekshiradi va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha qat'iy qoidalar qo'llaydi. Daniyada esa ombudsman instituti va shaffoflikka asoslangan qonunchilik korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

O'zbekiston qonunchiligida ushbu tajribalarni qo'llash uchun komplayens-nazorat tizimlarini joriy etish (ISO 37001:2016 standartiga asoslangan ichki nazorat tizimlari Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalarida korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash va bartaraf etishda samarali bo'ladi. Bu tizim xodimlarning axloqiy xulq-atvor qoidalariga rioya qilishini ta'minlaydi), deklaratsiyalash tizimini takomillashtirish (davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulk deklaratsiyalarini tekshirish uchun mustaqil organ tashkil etish va ushbu jarayonni avtomatlashtirish zarur), xabar beruvchilarni himoya qilish (xalqaro tajribaga asoslangan "whistleblower protection" qonunchiligini joriy etish orqali fuqarolarni korrupsiya faktlari haqida xabar berishga rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish lozim), huquqiy aniqlikni oshirish (O'RQ-419 qonuniga aniq jarayonlar va mexanizmlarni kiritish, masalan, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha qoidalar va kichik miqdordagi poraxo'rlik yoki mayda va jinoyat miqdorini



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

bermaydigan oldi-berdilar uchun ma'muriy jazo choralarini belgilash) singarilarni amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston qonunchiligi korrupsiyaga qarshi kurashda muhim huquqiy asos yaratgan bo'lsa-da, Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalarining faoliyatini tartibga solishda aniq mexanizmlar va ichki nazorat tizimlarining yetishmasligi mavjud. Xalqaro standartlar, xususan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va ISO 37001:2016 talablarini mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali ushbu kamchiliklarni bartaraf etish mumkin. Shu bilan birga, jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish va xabar beruvchilarni himoya qilish tizimini joriy etish Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalarining samaradorligini oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligini oshirishda xalqaro tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Dunyo miqyosida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuqori natijalarga erishib kelayotgan Gonkong, Singapur, Daniya singari rivojlangan mamlakatlarning amaliy va asoslangan nazariy bilimlarini mamlakatimiz qonunchilik tizimiga olib kirilishi lozim.

Jumladan,

Gonkong: Gonkongda korrupsiyaga qarshi kurash "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonun (Cap. 201) va Korrupsiyaga qarshi mustaqil komissiya (ICAC) tomonidan tartibga solinadi. Ushbu qonun davlat xizmatchilarining xatti-harakatlarini qat'iy tartibga soladi va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha aniq qoidalar belgilaydi. ICACning huquqiy vakolatlari mustaqil tergov o'tkazish, huquqbuzarliklarni aniqlash va jazo choralarini qo'llashni o'z ichiga oladi. Qonunchilik xabar beruvchilarni himoya qilish va anonim xabar berish mexanizmlarini ta'minlaydi, bu fuqarolar ishtirokini rag'batlantiradi. ICAC mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yuritadi va faqat Gonkong rahbariga hisobot beradi. ICACning uch yo'nalishli strategiyasi (tergov, oldini olish, jamoatchilikni xabardor qilish) korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. ICAC xodimlari maxsus malaka oshirish dasturlaridan o'tadi va ularning faoliyati qat'iy axloqiy kodeks bilan tartibga solinadi. ICAC ma'lumotlarni tahlil qilish uchun sun'iy intellektga asoslangan tizimlardan foydalanadi. Masalan, "Smart Analytics"



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

platformasi korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlashda katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qiladi. Bu tizim davlat xaridlari va mol-mulk deklaratsiyalarini avtomatlashtirilgan tarzda tekshiradi.²¹

Singapur: Korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurashish namunasi sifatida Singapurdagi islohotlarni ko'rsatish mumkin. Bu davlat qisqa vaqt ichida Osiyoning qoloq mamlakatidan dunyoning eng rivojlangan davlatiga aylandi. Buning zahirida esa korrupsiyaga qarshi kurash yotadi. Hukumat bu borada maxsus dastur ishlab chiqqan bo'lib, unga ko'ra barcha darajadagi amaldorlarning faoliyati to'liq shaffof bo'lishi ta'minlandi. Korrupsion aloqalar ildiz otmasligi uchun majburiy rotatsiya tartibi joriy etildi. Barcha darajadagi amaldorlarning fuqarolar bilan munosabatlarida tizimli nazorat o'rnatildi va turli byurokratik to'siqlar olib tashlanishi uchun bu munosabatlar mexanizmi takomillashtirildi. Bundan tashqari, barcha mansabdorlarning maoshlari sezilarli darajada oshirildi, sud tizimi mustaqilligi ta'minlandi, pora olganlik va berganlik uchun jazo keskinlashtirildi. Shu bilan bir vaqtda korrupsiyaning har qanday ko'rinishi haqida jamoatchilikni xabardor qilib turuvchi mustaqil OAV shakllantirildi. Singapur yetakchisi Li Kuan Yuning "Korrupsiya ustidan g'alaba qozonishni istagan inson o'z qarindoshlari va yaqin do'stlarini ham qamashga tayyor bo'lishi kerak"ligi haqidagi mashhur iborasi mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurash ayovsiz bo'lganidan dalolat beradi. Singapurda korrupsiyaga qarshi kurash "Korrupsiyani tergov qilish to'g'risida"gi qonun (PCA, 1960) va Korrupsiyani tergov qilish byurosi (CPIB) tomonidan boshqariladi. Qonunchilik davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulk deklaratsiyalarini majburiy tekshirishni, manfaatlar to'qnashuvini boshqarishni va poraxo'rlik uchun qat'iy jazo choralarini belgilaydi. PCA qonuni kichik miqdordagi poraxo'rlik uchun ham aniq ma'muriy va jinoiy jazo choralarini ko'zda tutadi, bu huquqni qo'llashda ixtiyoriy yondashuvni kamaytiradi. CPIB bosh vazir idorasiga bo'ysunadi va mustaqil tergov vakolatlariga ega. CPIBning institutsional tuzilmasi shaffoflik va javobgarlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, xodimlarning malakasini oshirish va texnologik vositalardan foydalanishga alohida e'tibor beriladi. CPIB "e-Declaration" tizimi orqali davlat xizmatchilarining

²¹<https://daqn.uz/2022/05/07/gonkong-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-bo%CA%BByicha-mustaqil-komissiyasi-vakillari-bilan-o%CA%BBzaro-istiqbolli-hamkorlik-masalalari-muhokama-qilindi/>



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

daromad va mol-mulk deklaratsiyalarini avtomatlashtiradi. Bundan tashqari, blockchain texnologiyasidan foydalangan holda davlat xaridlari shaffofligini ta'minlaydi.²²

Daniya: Daniyada korrupsiyaga qarshi kurash umumiy shaffoflik va ochiqlik prinsiplariga asoslanadi. “Davlat xizmatchilari to‘g‘risida”gi qonun va ombudsman institutining faoliyati davlat organlarida shaffoflikni ta'minlaydi. Daniya qonunchiligida xabar beruvchilarni himoya qilish bo'yicha maxsus qonun (Whistleblower Protection Act, 2021) mavjud bo'lib, u fuqarolarni korrupsiya faktlari haqida xabar berishga undaydi. Daniyada korrupsiyaga qarshi kurash maxsus tashkilotga emas, balki ombudsman instituti va davlat organlarining umumiy shaffoflik tizimiga asoslanadi. Ombudsman mustaqil ravishda davlat organlari faoliyatini tekshiradi va fuqarolar shikoyatlarini ko'rib chiqadi. Daniyada “Digital Denmark” tashabbusi doirasida davlat xizmatlari va xaridlar jarayonlari to'liq raqamlashtirilgan. Bu korrupsiya imkoniyatlarini minimallashtiradi va Ichki ishlar organlari faoliyatini soddalashtiradi.²³

O'zbekiston qonunchiligi korrupsiyaga qarshi kurashda muhim huquqiy asos yaratgan bo'lsa-da, Gonkong, Singapur va Daniya qonunchiligiga nisbatan aniq jarayonlar va mexanizmlar jihatidan orqada qolmoqda. Ayrim protsesslardan esa, qonunchilikdan jiddiy og'ish holatlari ham ko'p bora kuzatiladi. O'zbekistonning Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari institutsional mustaqillik va ichki nazorat tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, Daniyaning ombudsman institutini qisman joriy etish Ichki ishlar organlarining tezkor bo'linmalariga samarali ish faoliyatini olib borishga va faoliyat davomida shaffoflikka rioya qilinishiga hissa qo'shadi.

Shu o'rinda Gruziya tajribasi haqida ham alohida to'xtalib o'tish lozim. Gruziyada korrupsiyaga qarshi islohotlar 2003-yildan keyin yanada jadallashdi. “Davlat xizmatchilari to‘g‘risida”gi qonun (1997, 2015-yilda yangilangan) va “Manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiya to‘g‘risida”gi qonun (2015) davlat xizmatchilarining moliyaviy deklaratsiyalarini majburiy tekshirishni va manfaatlar to‘qnashuvini

²² <https://www.kun.uz/news/2021/12/07/singapur-korrupsiyani-qanday-yengdi>

²³ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/korrupsiya-urugi-quriyotgan-daniyadan-nimalarni-urganish-mumkin>



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

boshqarishni tartibga soladi. Davlat xizmatchilarining moliyaviy deklaratsiyalarni tekshirish boshqarmasi 2023 yilda 3 000 dan ortiq deklaratsiyani tahlil qilib, 150 ta noqonuniy boyish holatini aniqlagan (Georgia Anti-Corruption Agency, 2023). Gruziya politsiyasi ichki nazorat tizimlari va shaffof xodimlar tanlash jarayonlari orqali korrupsiyani minimallashtirgan.²⁴

Muammo va yechim:

Mamlakatimiz yuridik fanlar tizimida, shuningdek, davlat organlari, xususan ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari bilan bog'liq faoliyatda mazkur mavzuga oid bir qator dolzarb muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan,

- huquqiy bazaning yetishmasligi va mavjudlarining noaniqligi – mazkur jarayonda normativ-huquqiy hujjatlar mavjuddir, lekin ular bir-birlarini takrorlaydigan holatlar ko'p uchraydi, Qonunchilikka ushbu mavzuda yangiliklar kiritish joiz. Normativ-huquqiy hujjatlarda noaniqliklar juda ham ko'p. Noaniqliklar tufayli davlat xizmatchilari orasida axloqiy dilemmalar kelib chiqmoqda.

- Ichki nazorat tizimlarining yetishmasligi – mazkur soha bilan bog'liq ravishda PF-6257 farmoni korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimlarini joriy etishni talab qilsa-da, Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalarida komplayens-nazorat tizimi hali to'liq shakllanmagan. ISO 37001:2016 (Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari) standartiga muvofiq, ichki nazorat tizimlari korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash va bartaraf etishda samarali hisoblanadi, ammo O'zbekistonda ushbu standartning qo'llanilishi bilan bog'liq muammolar tobora avj olmoqda. Hali bunday belgilangan xalqaro standartlar mavjudligini bilmaydigan va bunda xabardor bo'lmagan rahbarlar ham talaygina.

- jamoatchilik bilan hamkorlikning huquqiy asoslarining zaifligi – qonunchilikda fuqarolar ishtirokini rag'batlantirishni ta'kidlasa-da, fuqarolardan korrupsiya haqida xabar olish va ularni himoya qilish mexanizmlari yetarli darajada tartibga solinmagan. Xususan, “xabar beruvchilarni himoya qilish” (whistleblower protection) tizimi O'zbekiston qonunchiligida deyarli mavjud emas, bu esa fuqarolarni korrupsiya faktlarini xabar qilishdan og'ishiga olib keladi.

²⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Gruziyada_korrupsiya



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

- ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikning yetarli darajada emasligi – Ichki ishlar organlari, Davlat xavfsizlik xizmati organlari, Prokuratura organlari tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirib borilmoqda, biroq mazkur jarayonlarning natijasi, javobgarlik masalalari haqida ommaviy axborot vositalarida to'liq xabar berib borilmaydi. Bu esa ham jamoatchilik ishtirokining cheklanishiga, ham shaffoflikni chegaralanishiga olib keladi.

- Xalqaro standartlarga moslashuvning cheklanganligi – O'zbekiston BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini (2008-yilda ratifikatsiya qilingan) qabul qilgan bo'lsa-da, uning ba'zi muhim talablari, masalan, davlat xizmatchilarining daromad deklaratsiyasini mustaqil tekshirish va aktivlarning noqonuniy boyishdan kelib chiqishini aniqlash mexanizmlari to'liq joriy etilmagan.

- Texnika vositalarida cheklovlar – Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazilishi uchun tezkor-texnik vositalarning soni cheklangan me'yorda belgilangan. Bunga ko'p mablag' talab qilinishi, ishchi va mehnat resurslarining ortishi sabab bo'lishi mumkin. Maxsus axborot-texnologiyalari vositalari orqali tayyorlangan, barcha fuqarolarga korrupsiya holati bilan bog'liq huquqbuzarliklarni erkin ko'rish imkoniyati mavjud bo'lgan baza, dasturlar mavjud emas. Agarda maxsus texnik vositalar yetarli darajada emas ekan, ushbu sohada natijadorlik ham ortga siljishi turgan gap.

Yuqoridagi kabi muammolar bugungi kunda nafaqat Ichki ishlar organlarining tezkor bo'linmalarida, balki boshqa davlat xizmati organlarida ham uchramoqda. Bu kabi muammolarga chek qo'yish uchun mukammal darajaga ega bo'lgan **normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish** lozim. Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonlarida kvalifikatsiyada ham muammolar uchrab turmoqda. Mazkur muammolarni oldini olish va qonuniylik, adolatparvarlik, gumanizm va javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga rioya qilgan holatda hal qilish lozim. Tezkor vakillar, surishtiruvchilar va tergovchilar uchun **maxsus treninglar va kengaytirilgan master-klass mashg'ulotlari o'tkazilsa** maqsadga muvofiq bo'lar edi. Respublika xodimlari uchun berilgan yagona yo'riqnoma qonunchilikdan og'ish holatlariga ham chek qo'yadi. Ichki nazorat tizimlari bilan bog'liq jarayonda esa barcha fuqarolar **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga murojaat qilishini isloh qilish** zarur. Qachongacha faqat fuqarolarning



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

o'zigina buzilgan huquqlarini himoya qilish uchun murojaat qilishadi. Agentlikning **ma'muriy hududiy birliklardagi shtatlarini joriy etilishi**, ular tomonidan shaxsiy tashabbus bilan korrupsion holatlar aniqlansa, xalqaro standartlarga javob beradigan faoliyat tashkil qilingan bo'lar edi. Bu sohada **jamoatchilik nazoratini o'rnatish** lozim. Bugungi kunda hech bir organ fuqarolarga jamoatchilik nazorati kabi kuchli ta'sir o'tkaza olmasa kerak. Shuning uchun fuqarolarning **o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikni tashkil etish** va mahallalarda **davra suhbatlari, treninglar, turli loyihalar va tadbirlar tashkil etish** zarur. **Javobgarlikka tortilayotgan shaxslar haqida ochiq ma'lumotlarni taqdim etilsa**, kelgusida boshqa vakolatli shaxslar tomonidan bu kabi jinoyatlarga qo'l urmasliklariga sabab bo'lishi mumkin. Sekin-astalik bilan mamlakatimiz huquqiy tizimiga rivojlangan davlatlar tajribalarini olib kirish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish lozim.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasining ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash, fuqarolar ishonchini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. Biroq, sotsiologik so'rovlar, adabiyotlar tahlili, statistik ma'lumotlar va xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, Ichki ishlar organlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashda bir qator tizimli muammolar mavjud. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun taklif qilingan yechimlar O'zbekiston qonunchiligi, xalqaro standartlar va Gonkong, Singapur, Daniya va Gruziya tajribasiga asoslanadi. Yechimlar inson huquqlari (adolatli sudlov, so'z erkinligi, professional rivojlanish), shaffoflik va javobgarlik prinsiplarini hisobga oladi.

Siyosiy nuqtai nazardan, korrupsiyaga qarshi kurash O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasida belgilangan shaffof davlat boshqaruvi va fuqarolar ishonchini oshirish maqsadlariga mos keladi.²⁵ Tizimli islohotlar O'zbekistonning xalqaro imidjini yaxshilaydi, bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi. Gonkong, Singapur, Daniya va Gruziya tajribasi shuni ko'rsatadiki, qat'iy huquqiy baza, zamonaviy texnologiyalar va fuqarolar ishtiroki

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-son farmoni - <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

orqali korrupsiyani sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Masalan, Gruziya postsovet mamlakat sifatida 2003-2015 yillarda politsiya islohotlari orqali korrupsiyani 70% ga kamaytirdi (Georgia Anti-Corruption Agency, 2023), bu O'zbekiston uchun amaliy model sifatida xizmat qilishi mumkin. Ushbu choralar O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasiga mos keladi va mamlakatning xalqaro imidjini yaxshilashga, fuqarolar ishonchini oshirishga va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
4. *Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun* (O'RQ-419). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. <https://lex.uz/docs/3476647>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-34-son qarori - <https://www.lex.uz/uz/docs/-5763360>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-6013-son farmoni - <https://www.lex.uz/uz/docs/-4875784?ONDATE=08.11.2023%2000>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6257-son farmon - <https://lex.uz/docs/-5495529>



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-son farmoni - <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
9. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yil 31-oktyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi" - <https://lex.uz/docs/-1461329> (O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan 2008-yil 28-avgust kuni ratifikatsiya qilingan - <https://lex.uz/docs/-1369505>)
10. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni (O'RQ-407, 2016) - <https://www.lex.uz/docs/-3027843>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi PQ-2752-son qarori bilan "2017-2018-yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha" davlat dasturi - <https://lex.uz/docs/-3105125?otherlang=1>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son Farmoni bilan "2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish" Davlat dasturi - <https://lex.uz/docs/-4355387?ONDATE=07.07.2021>
13. Shavkat Mirziyoyev korrupsiyaga qarshi kurashning yangi tuzilmalarini tashkil qilish bo'yicha yig'ilishida so'zlagan nutqi - 11.02.2020.
14. Korrupsiyaga qarshi kurash tarmog'i Istanbul Harakatlar Rejasi (IHR) doirasida Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarining 2016-2019 yillarda korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi islohotlari Monitoringi. www.oecd.org/corruption/acn
15. Nurmuhamedova G.B. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar profilaktikasi mexanizmlarini takomillashtirish: usullari va yo'nalishlari // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald. № 1 (2021), B. 189-201.
16. B. Ismoilov, Korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro huquqiy asoslari 2. http://uzmarkaz.uz/www_data/articles/file/korruptsiyaga_arshi_kurashning.pdf
17. Abdullaev, U. (2021). *O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslari: muammolar va takliflar*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashriyoti.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

18. Independent Commission Against Corruption (ICAC). (2023). *ICAC Annual Report 2023*. Hong Kong: ICAC Press. Retrieved from <https://www.icac.org.hk/en/about/annual-reports/>
19. Corrupt Practices Investigation Bureau (CPIB). (2023). *CPIB Annual Report 2023*. Singapore: CPIB Press. Retrieved from <https://www.cpiib.gov.sg/about-cpiib/annual-reports/>
20. Danish Digitalization Agency. (2023). *Digital Denmark: Transparency and Anti-Corruption Initiatives*. Copenhagen: Danish Government Publishing.
21. Danish Ombudsman. (2023). *Annual Report 2023: Public Sector Complaints and Whistleblower Protection*. Copenhagen: Danish Ombudsman Office. Retrieved from <https://www.ombudsmanden.dk/en/publications/annual-reports/>
22. Georgia Anti-Corruption Agency. (2023). *Anti-Corruption Reforms and Progress Report 2023*. Tbilisi: Georgia Government Publishing. Retrieved from <https://www.anticorruption.ge/en/reports/>
23. Georgia e-Procurement Agency. (2023). *e-Procurement System Annual Report 2023*. Tbilisi: Georgia Government Publishing. Retrieved from <https://www.procurement.ge/en/reports/>
24. Klitgaard, R. (1988). *Controlling Corruption*. Berkeley: University of California Press.
25. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. *O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha yillik hisobot 2020-2025 yillar*. Toshkent: Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi nashriyoti.
26. Rose-Ackerman, S. (1999). *Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform*. Cambridge: Cambridge University Press.
27. Transparency International. (2024). *Corruption Perceptions Index 2024*. Berlin: Transparency International. Retrieved from <https://www.transparency.org/en/cpi/2024>
28. United Nations. (2003). *United Nations Convention Against Corruption*. New York: United Nations Office on Drugs and Crime. Retrieved from https://www.unodc.org/documents/treaties/UNCAC/Publications/Convention/08-50026_E.pdf



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th July, 2025

-
29. International Organization for Standardization. (2016). *ISO 37001:2016: Anti-Bribery Management Systems*. Geneva: ISO. Retrieved from <https://www.iso.org/standard/65034.html>
30. Xolmurodov, A., & Saidov, M. (2020). O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash: muammolar va yechimlar. *Iqtisodiyot va huquq jurnali*, 12(3), 45–56.